

## FARG'ONA VODIYSI TOPONOMIYASI

*Jo'raqo'ziyeva Zamiraxon*

*Anotatsiya: Ushbu tezisda , Farg'ona vodiysini ya'ni Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlarini toponimikasi, joy nomlari, toponimlarni tuzilishi, tarkibi, o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr va mulohazalar yuritilgan*

*Kalit so'zlar : Gidronimlar, Oronimlar, Joy nomlari, Toponimlar, Sodda nomlar, Qo'shma nomlar*

### **Kirish**

**Farg'ona viloyati toponomiyasi.** O'zbekiston qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan Farg'ona viloyati hududi asosan tekisliklardan iborat. Oronimlar va Gidronimlar soni nisbatan kamroq. Shuning uchun viloyat toponimiyasini o'rganishda aholi punktlari nomi oykonimlarga ko'proq etibor qaratish kerak. Bundan tashqari aholi soni jihatdan ham viloyat respublikada yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Aholi zich joylashgan mintaqada oykonimlarning soni ham ko'p bo'ladi.

Farg'ona viloyati toponimiyasi boshqa mintaqalardan geografik obyektlarni nomlashda asos bo'lgan tabiati, tarixi, aholisining etnik tarkibiga ko'ra qisman bo'lsa ham farq qiladi. Viloyat toponimiyasining farqlovchi xususiyatlaridan biri shuki mintaqa joy nomlari tarkibida urug' qabila nomlari bilan bog'liq etnotoponimlar nisbatan kam.[1] Farg'ona juda qadimiy nomlardan biri. B.B Bartol ma'lumotlariga ko'ra hozirgi Farg'ona shahrining ko'rinishi 1877- yili boshlangan. Shahar 1907- yilgacha Yangi Marg'ilon (milliy xalq orasida Sim) deb atalgan. 1924- yilda shaxarga juda qadimiy tarixga ega bo'lgan Farg'ona nomi berilgan. Farg'ona viloyati toponimlarining tuzilishi tarkibi yasalishini chuqur o'rgangan olim H.Oxunov viloyat oykonimlarini tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'lgan. Sodda va qoshma nomlar. Sodda nomlar tarkibida –chi(sandiqchi), –li(yong'oqli),-lik (quduqlik), -obod (mirobod), -zor (odamzor), singari topofarmatlar qatnashadi.

**Namangan viloyati toponimiyasi.** Viloyat hududining asosiy qismi Sirdaryoning asosiy o'ng sohili keng Farg'ona vodiysida joylashgan. Shimolda Chotqol va Qurama tog'lari bilan o'ralgan. S. Qaroyevning yozishicha Namangan viloyati toponimiyasining ichki xususiyatlaridan biri shuki, joy nomlari tarkibida Qo'rg'on va Qo'rg'oncha so'zlari ko'p uchraydi. Olimning takidlashicha yer sathidan ko'tarilgan joyda tevaragi devor bilan o'rab olingan. Darvozali qal'a istehkomini qo'g'on deyishgan. Namangan viloyati toponimiyasi tarkibida mintaqada xos va joy nomlari yasashga iqtisoslashgan indikator terminlar ko'p. [2] Ana shunday darakchi – obod termini bazi otlarga ya'ni ayrim sifatlarga qo'shilib ba'zan mustaqil holda joy nomlari yasaydigan " obodonashtirilgan", " o'zlashtirilgan" go'zal, chiroyli, tartibga solingan ma'nosidagi afiks so'z. Viloyat toponimlari orasida etnotoponimlarning kamligi ham viloyat toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Hisob kitoblarga ko'ra viloyat hududida 650 dan ko'proq oykonimlar mavjud. Ulardan faqat 45 tasi etnotoponimlar hisoblanadi. [3] Shaxar nomining kelib chiqishi to'g'risida mutaxassislarni fikri turlicha. Tarixiy manbalardan shaxar qadimdan Chust va Tuz nomlari bilan ma'lum bo'lganligi aniqlangan. Umuman olganda mintaqa toponimiyasi ancha murakkab toponomik landshaftga ega. Viloyat toponimiyasi haqida toponomik adabiyotlarda tarixiy manbaalarda ko'plab hujjat topish mumkin.

**Andijon viloyati toponimiyasi.** Viloyat Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. Hududi asosan tekisliklardan hamda qisman farg'ona va oloy tizmalarining adirliklaridan iborat. Andijon viloyati toponomlari O'zbekiston toponimiyasining tarkibiy qismi bo'lib shakllanishi, tuzilishi, ma'no mazmuni jihatdan boshqa viloyatlardan keskin farq qilmaydi. Viloyat geografik nomlar hosil qilishda faol qatnashgan. [4] Terminlar qatoriga tepa ( Jartepa, Toshtepa) Qo'rg'oncha ( Qo'rg'oncha, Eshiqo'rg'oncha), Jar ( Jarboshi, Jartepa ) kabi qo'shimchalarni kiritish mumkin. O'tmishda joy nomlari hosil qilishda "yer" ancha ser mahsul qo'shimcha hisoblangan va uning yordamida ko'plab joy nomlari hosil qilingan. **Mahmud Qoshg'ariy "Devon lug'ti turk"** asarida qadimiy turkiy tillarda "jar" so'zi "yar" ya'ni yer shaklida tallafuz qilingan deb yozilgan.

X asrdan boshlab shahar nomi arab geograflari Ibn Xaqva, Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida va boshqa tarixiy manbalarda Andiyan, Andigon, Andikon, shakllarida qayd qilingan. Tarixchi olim C. Jalilov fikriga ko'ra, shahar nomiga "an" degan turkiy qabilaning nomi asos bo'lgan. Bu etnonim forscha ko'plik qo'shimchasida adgon shaklida talaffuz qilingan va keyicha unga "n" tovushini qo'shilgan deb hisoblaydi.[5] O'rta asrlarda andi degan turkiy qabila bo'lganligini e'tirof etib, etnograf B. Karnisheva ham shahar nomiga mazkur etnonim asos bo'lganligini extimoldan holi emas degan xulosani bayon qilgan.

Ayrim mutaxassislar shahar nomini uning geografik o'rni bilan bog'liq deyishadi. Masalan, akademik a. Muhammadjonov fikricha, Andijon oykonimi "andi" va "gon" yoki "gin" so'zlari birikmasidan paydo bo'lgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Zohid Madrahimov "TARIXIY TOPONIMIKA" (o'quv qo'llanma) "Navro'z nashriyoti Toshkent 2017
2. Xalimov Rabbim Xalimovich "Toponimika fanidan geografiya yo'nalishi talabalari uchun O'quv uslubiy majmua" Samarqand 2009
3. Xakimov .Q .M "Mirakmalov .M.T TOPONIMIKA" (DARSLIK) Toshkent "tafakkur avlodi" 2020
4. Suyun Qorayev "TOPONIMIKA" O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2006.
5. F.S.Meliboyeva, M.O.Vohidova, A.S. Anorboyeva "TOPONIMIKANING GEOGRAFIYADAGI O'RNI" 2023.